

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamonova</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF AIR PROTECTION AND STRENGTHENING ENVIRONMENTAL CONTROL IN UZBEKISTAN

Rasulov Bakhtiyor Shavkatovich,

Research doctoral student of the

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: rasulovbaxtiyor84@gmail.com

Abstract. The article analyzes the issues of protecting atmospheric air and strengthening environmental control in Uzbekistan. The report indicates the main causes of air pollution - harmful substances emitted by industrial enterprises and motor vehicles, gaps in the current legislation and inefficiencies in the activities of control bodies. The author makes practical proposals for improving legislation, recognizing legal entities as subjects of administrative liability, unifying categories of environmental hazards, granting the authority to suspend activities only to the court, and making the use of dust and gas purification equipment mandatory. The article is aimed at improving the environmental situation and effectively implementing mechanisms for protecting atmospheric air by strengthening the implementation of laws.

Keywords: atmospheric air, pollution, environmental control, legislation on administrative liability, industrial enterprises, dust and gas purification equipment, judicial practice.

O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI

Rasulov Baxtiyor Shavkatovich,

O'zbekiston Respublikasi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda atmosfera havosini muhofaza qilish va ekologik nazoratni kuchaytirish masalalari tahlil qilingan. Hisobotda havo ifloslanishining asosiy sabablari – sanoat korxonalari va avtotransportdan chiqariladigan zararli moddalar, amaldagi qonunchilikdagi bo'shliqlar va nazorat organlari faoliyatidagi samarasizliklar ko'rsatilgan. Muallif tomonidan qonunchilikni takomillashtirish, yuridik shaxslarni ma'muriy javobgarlik subyekti sifatida e'tirof etish, ekologik xavf toifalarini yagonalashtirish, faoliyatni to'xtatish vakolatini faqat sudga berish va changgaz tozalash uskunalaridan foydalanishni majburiy qilish kabi amaliyotga qo'llaniladigan takliflar berilgan. Maqola qonunlar ijrosini kuchaytirish orqali ekologik vaziyatni yaxshilash va atmosfera havosini muhofaza qilish mexanizmlarini samarali amalga oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: atmosfera havosi, ifloslanish, ekologik nazorat, qonunchilik ma'muriy javobgarlik, sanoat korxonalari, changgaz tozalash uskunalari, sud amaliyoti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N59>

Kirish. Dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, aholi sonining oshib borishi bilan bog'liq zaruratlar sabab sanoat, ishlab-chiqarish o'sib borishi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish oqibatida insoniyatning tabiatga bo'lgan salbiy ta'sirining oshishi ekologik vaziyat yomonlashishi bilan bog'liq global salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi [1].

Mamlakatlar aholisi zich bo'lgan, xususan poytaxt shaharlarda va yirik sanoatga ixtisoslashgan hududlarda atmosfera havosining ifloslanish darajasi yuqoriligi, o'z navbatida

bu muammo nafaqat ekologik, balki ijtimoiy, iqtisodiy ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir etuvchi muammo sifatida qaralishiga sabab bo'lmoqda.

Shu boisdan, mazkur sohada qabul qilingan qonun va normativ-huquqiy hujjatlarning to'liq va so'zsiz ijrosini ta'minlash sohaga mas'ul davlat organlari, xususan, prokuratura tizimining muhim vazifalaridan biridir. Prokuratura organlari tomonidan qonun ustuvorligini ta'minlash, ifloslantiruvchi manbalar faoliyatini qonuniy asosda nazorat qilish, havo sifatiga oid ma'lumotlarning yashirilishini oldini olish hamda tabiatga yetkazilgan zararni undirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu borada olimlarimizdan B.Po'latov, T.Sherkulova, Sh.Mirzokirov, B.Djo'raev kabi olimlarimiz o'z ilmiy ishlarida to'xtalib o'tishgan. Xususan, B.Po'latov ta'kidlashicha, tabiat muhofazasi qonunchiligi ustidan nazorat olib borishda yer fondi turlari huquqiy maqomining noqonuniy o'zgartirilishiga, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ishdan chiqarishga, o'rmon boyliklari, hayvonot dunyosining yo'qotilishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga, suvdan xo'jasizlarcha foydalanishga qarshi kurashga qaratilgan qonun talablariga rioya etilishini prokurorlar tomonidan nazoratni amalga oshirishdagi oldingi planga olib chiqilishi zarur bo'lgan yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etadi [2].

Tahlillar, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida qonunlarni aniq va bir xilda ijro etishni ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar samarali ishlamayotganligi, aniqlanayotgan huquqbuzarliklar uchun qat'iy jazo choralari qo'llanilishida huquqiy amaldagi qonun hujjatlarida bo'shliqlar mavjudligi, oqibatda qonunbuzilish holatlariga nisbatan qo'llanilayotgan huquqiy ta'sir choralari mavjud muammolarni bartaraf etish imkonini bermayotganligini ko'rsatdi.

Mamlakatimizda atmosfera havosiga bir yilda **1,8 mln.** tonna tashlanmalar tashlanishi va manbasiga ko'ra asosan **sanoat korxonalari** va **avtotransport** vositalari hisobiga to'g'ri kelishi aniqlangan.

Sanoat korxonalari atmosfera havosiga ko'rsatadigan salbiy ta'siriga ko'ra **4 ta toifaga** bo'linadi. Mamlakatimizda atmosfera havosiga salbiy ta'siri yuqori bo'lgan **I va II** toifa sanoat korxonalari soni **3 446** tani tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining joriy yilning 14 yanvar kungi Toshkent shahrida atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan kechiktirib bo'lmas chora-tadbirlar Dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotida, Toshkent viloyatidagi 173 ta, Toshkent shahridagi 30 ta atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I va II toifasiga mansub bo'lgan sanoat korxonalarining ifloslantiruvchi ustuvor manbalari xatlovdan o'tkazilayotganligi, natijalariga ko'ra ularda changgaz tozalash uskunalarini o'rnatish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi rejalashtirilayotganligi, poytaxt (30 ta) va Toshkent viloyatidagi (173 ta) I va II toifasiga mansub bo'lgan sanoat korxonalari hududi va tutash hududlarida "yashil belbog'" barpo etish maqsadida daraxt ko'chatlarini ekishni tashkillashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilayotganligi ko'rsatib o'tilgan [3].

"IQAir" kabi real-vaqt monitoring vositalari hamda mahalliy manbalar ma'lumotiga ko'ra, Toshkent va boshqa shaharlaridagi atmosfera havo sifati 2025-yilgi hisobotlarga ko'ra, PM2.5 ning konsentratsiyasi va yillik o'rtacha darajasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tavsiya qilgan me'yor darajasidan 6 barobar ko'p.

Xususan, joriy yilning 20 noyabr soat 09:00 holatiga Toshkent shahri havosida mayda PM_{2,5} dispers zarralarining konsentratsiyasi 202 mkg/m³ ni tashkil etdi va havo iflosligi bo'yicha dunyoda 1-o'ringa chiqdi [4]. Bu "zararli" tasnifdagi ko'rsatkich hisoblanadi. IQAir portaliga ko'ra, poytaxt havosida PM₁₀ turidagi zararli zarrachalar miqdori 299 mkg/m³ ga yetgan. Bu Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti belgilagan me'yordan (har kuni uchun 60 mkg/m³) qariyb 3,4 barobar yuqori bo'lib, inson salomatligi uchun xavfli darajadir.

Mazkur ko'rsatkich ayni vaqtda ham ijobiy tomonga o'zgarmaganligi, ekologik vaziyatni yaxshilash va aniqlangan qonunbuzilish holatlariga nisbatan ko'rilyotgan choralar **yetarlicha samara bermayotganligidan dalolat bermoqda**.

Qayd etilgan muammolar quyidagi e'tibor qaratish talab etiladigan muhim omil va sabablar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

Birinchidan, atmosferaga salbiy ta'siri bo'yicha obyektlarni toifalashtirish, maxsus qonun Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi Qonun bilan tartibga solinmagan;

Ikkinchidan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda hozirgi kunga qadar yuridik shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmagan. Vaholanki qo'shni Qozog'iston va MDHga a'zo aksariyat davlatlarda yuridik shaxs ma'muriy javobgarlik subyekti sifatida baholanadi.

Bu borada borada olimlarning fikrlari ham turlicha. Shu o'rinda yuridik shaxsning ma'muriy javobgarlikning maxsus subyekti sifatida baholagan olimlar D.N Baxrax, Yu.M.Kozlov, L.L.Popovlarning fikriga to'liq qo'shilamiz. Ma'muriy huquq nazariyasida yuridik shaxsning ma'muriy javobgarlik subyekti sifatida e'tirof etilishi ko'plab olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Xususan, rus huquqshunosi **D.N.Baxrax** yuridik shaxslar davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy majburiyatlarni bajarmagan taqdirda ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkinligini ta'kidlab, ularning ma'muriy javobgarlik institutida mustaqil subyekt sifatida namoyon bo'lishini [5] qayd etadi.

Shu bilan birga, **Yu.M.Kozlov** va **L.L.Popov** ham yuridik shaxslarni ma'muriy javobgarlikning to'laqonli subyekti sifatida qarashni ma'qullaydi. Ularga ko'ra, yuridik shaxs faoliyati orqali jamoat manfaatlariga yetkazilgan zarar yoki qonun talablarining buzilishi ma'muriy huquqbuzarlik deb baholanishi mumkin va bu holda javobgarlik tashkiliy-huquqiy tuzilma sifatida yuridik shaxsning o'zi zimmasiga yuklanadi [6].

Uchinchidan, Mjtkning atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash inshootidan foydalanish qoidalarini buzish, shuningdek undan foydalanmaslik uchun javobgarlik belgilangan 86-moddasida ayb, huquqiy oqibat bilan bog'lanmagan.

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunda esa changgaz qurilmalaridan foydalanishda atmosfera havosini muhofaza qilish bilan bog'liq talablarni belgilovchi norma mavjud emas.

To'rtinchidan, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasida **ifloslantiruvchi manba atmosferaga yo'l qo'yiladigan ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishining normativlarni buzgan hollarida** faoliyatni cheklash, to'xtatib turish yoki tugatish sud tartibida amalga oshirilishi belgilangan bo'lsada, ma'muriy chora sifatida faoliyatni to'xtatish bilan bog'liq huquqiy ta'sir chorasi ekologiya sohasidagi aynan **qaysi huquqbuzarliklar** (Mjtk) uchun qo'llanishi mumkinligi, mazkur huquqiy ta'sir chorasi

qancha muddatga qo'llanilishi qonun hujjatlarida aniq belgilanmagan. Huquqiy ta'sir choralari qo'llash vakolati esa iqtisodiy sudlarga berilgan.

Shu o'rinda yuridik shaxsning faoliyatini to'xtatish huquqiy ta'sir chorasini IPK normalari bo'yicha faqat huquqbuzarlik sodir etilganda qo'llanishi mumkin (IPK 218-modda, 1-qism, 3-bandi talabi). Mazkur kodeksning 68-moddasi 2-qismi talabiga ko'ra, yuridik shaxslar va fuqarolarga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda huquqiy ta'sir choralari qo'llash uchun asos bo'lgan holatlarni isbotlash majburiyati nazorat qiluvchi organ zimmasiga yuklatiladi. Iqtisodiy sudlar ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan yoki sodir etilmaganlik faktini ko'rib chiqish vakolatiga ega emas, ya'ni bu fakt iqtisodiy sud uchun isbotlash talab etilmaydigan holat bo'lishi kerak.

Qonunchiligimizdagi sanab o'tilgan bo'shliqlar esa o'z navbatida nazorat qiluvchi organlar tomonidan iqtisodiy sudlarga faoliyatni to'xtatish bilan bog'liq huquqiy ta'sir chorasini qo'llash haqida tartibsiz arizalar taqdim etilishiga, arizalarni mazmunan hal etishda turli xil amaliyot qo'llanishiga (*ayrim sud qarorlarida nazorat qiluvchi organ ma'muriy huquqbuzarlik faktini isbotlash vositasi sifatida keltirsa, ayrimlarida bu haqida umuman dalillar keltirilmagan, faqat ekologik ekspertizaning ijobiy xulosasi olinmasdan faoliyat boshlaganligi uchun faoliyatni to'xtatish haqida ariza berilgan*) olib kelmoqda.

Masalan, Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 2024 yil 9 yanvar kungi hal qiluv qarori bilan arizachi O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (sobiq, hozirgi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi) Toshkent shahar boshqarmasining javobgar RB BARAKA HILOL MChJga nisbatan faoliyatni to'xtatib turish haqidagi arizasi qanoatlantirilgan, jamiyat faoliyati ekologik ekspertiza xulosasi olinmagunga qadar to'xtatilgan va ijrosi arizachiga yuklatilgan.

Yoki Sirdaryo tumanlararo iqtisodiy sudining 2025 yil 22 aprel kungi qarori bilan arizachi O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi viloyat boshqarmasining javobgar MChJga nisbatan jamiyat faoliyatini to'xtatish haqidagi arizasi qanoatlantirilib, boshqarmaning 2025 yil 24 yanvar kungi ko'rsatmasi bajarilgunga qadar (*ko'mir saqlash bazasining 5 metr balandlikdagi beton devor bilan o'rash, korxona atrofida 3000 dona daraxt ko'chatlari o'tkazish, jamiyat hududiga to'liq himoya ekranlari o'rnatish ko'rsatmalari*) faoliyati to'xtatilgan.

Vaholanki, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi maxsus qonunda **faqat ifloslantiruvchi manba atmosferaga yo'l qo'yiladigan ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishining normativlarni buzgan hollarida faoliyatni cheklash, to'xtatish, tugatish bilan bog'liq huquqiy ta'sir chorasini qo'llanishi mumkin.**

Bu esa o'z navbatida sudlarda atmosfera havosini muhofaza qilish bilan bog'liq tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llashda **noto'g'ri amaliyot** shakllanganligini ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda mazkur toifa sud qarorlarining **ijrosi** masalasida ham turlicha amaliyot qo'llanilganligini ko'rish mumkin.

Jumladan, 2024 yilda ko'rilgan ishlar "Adolat" bazasida 65 ta faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish bilan bog'liq sud qarorlari ijrosi arizachining o'zining zimmasiga yuklatilgan, 2025 yilda esa amaliyot o'zgarib, sud qarori 10 kunda ijroga qaratilishi belgilangan.

“Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni [7] 1996 yilda qabul qilingan bo‘lib, uning ijrosi ustidan nazorat yetarli darajada o‘rnatilmagan hamda ushbu qonunni hozirgi xalqaro standartlar asosida yangidan qabul qilish lozim bo‘ladi;

Shuningdek, monitoring tizimlari yetarli darajada emas. IQAir kabi stansiyalar va mas‘ul vazirlik tomonidan o‘rnatilgan nazorat punktlar butun mamlakatni qamrab olmaydi;

Atmosfera muhofazaga oid talablarni bajarmagan subyektlar uchun qo‘llanilishi belgilangan jarimalar pastligi, ularning chiqindilarni kamaytirishga turtki bo‘la olmayapti (misol uchun MJtKning 86-moddasi 1-qismi sanksiyasida atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash inshootidan foydalanish qoidalarini buzish, shuningdek undan foydalanmaganlik bilan bog‘liq ma‘muriy huquqbuzarlik uchun mansabdor shaxslarga atigi BHMning bir baravaridan uch baravarigacha ma‘muriy jazo ko‘zda tutilgan) [8];

Mas‘ul Qo‘mita tomonidan shaffoflik tizimi yetarli darajada emas. Havoning haqiqiy holati bo‘yicha ochiq ma‘lumotlarni qo‘mitaning sayti yoki boshqa ochiq manbalarida topish qiyin. Havoning iflosligini aniqlashga mo‘ljallangan texnologiyalar shahar bo‘yicha yetarli o‘rnatilmagan.

Yuqoridagi muammolarga asosiy sabablar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- amaldagi qonunchilikdagi kamchiliklar;
- nazorat organlari va prokuratura o‘rtasidagi hamkorlik yetarlicha samarali emasligi;
- hisobga olish va baholash tizimidagi muammolar;
- javobgarlik choralari yetarli darajada emasligi.

Barcha sanab o‘tilgan muammolar, qonunchilikdagi bo‘shliqlar atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida aniqlanayotgan qonunbuzilish holatlariga nisbatan ayb uchun javobgarlik, jazo muqarrarligini ta‘minlash bilan bog‘liq huquqiy mexanizmning bir butun holda ishlashiga ekologik vaziyatni o‘nglashga to‘sqinlik qilmoqda.

Demak, O‘zbekistonda atmosfera havosi muhofazasi bilan bog‘liq muammolar aniq ravishda mavjud va ularni tahlil qilish orqali asosiy sabablarni aniqlab, shu asosda taklif va tavsiyalarni ko‘rib chiqish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qo‘yilgan maqsadga erishish hamda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ilmiy tadqiqotning bir qator usul va metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga doir mavjud muammolar aniqlanib, ularni hal etishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalar, ilmiy maqolalar, qonun hujjatlari va me‘yoriy-huquqiy manbalar o‘rganildi hamda tahlil qilindi. Shuningdek, rasmiy manbalardan olingan statistik ma‘lumotlar asosida qiyosiy va tahliliy usullar qo‘llanildi.

Amaliyotdan olingan ma‘lumotlar tadqiqotning muhim manbasi sifatida xizmat qildi. Ushbu ma‘lumotlar tahlili orqali mavjud holat baholandi, muammolar aniqlandi va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy xulosa hamda takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil kabi umum-ilmiy va maxsus tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar tadqiqot natijalarining ilmiy asosli va ishonchli bo‘lishini ta‘minladi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi muammolar va sohaga oid RF, Ukraina, Qozog'iston, Belorussiya, Ozarbayjon davlatlarining qonunchiligi normalari o'rganilib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunga "Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda atmosfera havosini muhofaza qilish talabi, "Changgaz uskunalardan foydalanishda atmosfera havosini muhofaza qilish talabi" bilan bog'liq yangi norma kiritish;

- Shaharsozlik kodeksiga I va II toifaga kiruvchi yangi obyektlarni loyihalashtirishda yuqori samaradorlikka ega changgaz tozalash uskunolari va (yoki) lokal suv tozalash inshootlari o'rnatilishi ko'zda tutilmagan loyihalarni davlat ekologik va shaharsozlik ekspertizalaridan o'tkazish hamda qurilishi tugallangan obyektlarni, ularni o'rnatmagan holda foydalanishga qabul qilish man etilishi bilan bog'liq taqiqni (32-moddasi) kiritish;

- MJtKda yuridik shaxsni ma'muriy javobgarlik subyekti sifatida kiritish, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasini qo'llash mumkin bo'lgan huquqiy ta'sir chorasi sifatida faoliyatni to'xtatishni mustaqil ma'muriy jazo chorasi sifatida kiritish, mazkur jazo chorasini atmosfera havosi bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar bilan bog'liq normalar sanksiyasiga kiritish;

- yuridik shaxs faoliyatini to'xtatish bilan bog'liq jazo chorasini qo'llashni mutlaq vakolat sifatida sudga berish, faoliyatni to'xtatish muddatini 90 kungacha belgilash;

- MJtK 86-moddasi (Atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash inshootidan foydalanish qoidalarini buzish) [9], shuningdek undan foydalanmaslik (Atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash inshootidan foydalanish qoidalarini buzish, shuningdek undan foydalanmaslik) [10] 1-qism tahririni o'zgartirish, unda nafaqat **o'rnatilgan** tozalash uskunalaridan foydalanmaslik va foydalanish qoidalarini buzganlik, balki umuman ushbu uskunalaridan foydalanish qoidalarini buzganlik va undan foydalanmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash;

- Nazorat organining 10 kunlik faoliyatni to'xtatish vakolatini bekor qilish. Amalda nazorat organlarida faoliyatni 10 kungacha to'xtatish vakolati mavjud, ammo bu mexanizm samarasiz, chunki, korxonalar buni vaqtincha chora deb bilib, tizimli buzilishlarni davom ettirishi va nazorat organi tomonidan to'xtatish huquqiy kafolatlardan tashqari deb baholanishi xavfi yuqori darajada. Shu boisdan ham bizningcha, faoliyatni to'xtatish faqat sud qarori orqali amalga oshirilishi, nazorat organining ushbu vakolati qonunchilikdan chiqarib tashlanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, ekologik xavf darajalari (I, II, III toifalar) hozirgi kunda turli normativ hujjatlarda tarqoq holda berilgan. Shu sababli, xavf toifalarini belgilash, ya'ni "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunda aniq va bir xil mezonlar bilan belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi taklif va mulohazalar kelgusida atmosfera havosini muhofaza qilish bilan bog'liq qonunlar ijrosini samaradorligiga, xavfli ta'sir manbalariga nisbatan ta'sirchan qonuniy choralar ko'rilishiga, ekologik xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi.

Bu o'rinda Toshkentda ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan maxsus komissiya tuzilganligini va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" 2025 yil 24 noyabrda PF-229-sonli Farmoni [11] qabul qilinganligini alohida ta'kidlash kerak.

Yuqorida keltirilgan takliflar Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash, havo ifloslanishiga qarshi kurashish va sanoat hamda shaharsozlik sohalarida ekologik nazoratni kuchaytirishga qaratilgan tizimli islohotlarni qamrab oladi. Asosiy maqsad — atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha amaldagi qonunchilikni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, nazorat mexanizmlarini aniqlash va samaradorligini oshirishdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, qonunchilikka taklif etilayotgan yangi normalar changgaz tozalash uskunalaridan foydalanishni majburiy shart sifatida belgilaydi, ularsiz qurilishga ruxsat berish va obyektlarni foydalanishga qabul qilishni cheklaydi. Bu esa ekologik talablar bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatishga xizmat qiladi.

Ma'muriy javobgarlik tizimini takomillashtirish, yuridik shaxslarni javobgar subyekt sifatida belgilash va faoliyatni to'xtatish vakolatini faqat sudga berilishi konstitutsiyaviy kafolatlarga mos keladi hamda huquqni qo'llash amaliyotida shaffoflikni ta'minlaydi. Nazorat organlarining 10 kunlik faoliyatni to'xtatish vakolatini bekor qilish esa o'rinli, chunki amalda bu mexanizm samarasiz bo'lib, korxonalar tomonidan vaqtincha chora sifatida qabul qilinmoqda.

Shuningdek, ekologik xavf toifalarini yagona qonunchilikta aniq belgilash, turli normativ hujjatlarda tarqoq holda qolmasligi, tizimni birxillashtirish va amaliy qo'llanilishida aniqlik yaratadi.

Umuman olganda, ushbu takliflar ekologik xavfsizlikni ta'minlash, havo ifloslanishiga qarshi kurash bo'yicha qat'iy huquqiy asos yaratish va nazoratning samaradorligini oshirish uchun muhim huquqiy chora-tadbirlar hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. T.J. Jumaev. Ekologiya idtisodiyoti - (Darslik) — T.: TDIU, 2004 - 288 bet.
2. "Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil qilish va prokuror nazoratining na'munaviy hujjatlar to'plami", Amaliy-uslubiy qo'llanma, Toshkent –2013, Po'latov Baxtiyor, Sherkulova Tojixon Mirzokirov Sherzod, Djo'raev Baxrom.
3. https://gov.uz/oz/eco/activity_page/atmosfera-havosi-va-ozon-qatlami
4. <https://www.iqair.com/ru/uzbekistan/toshkent-shahri/tashkent>
5. Бахрах Д.Н. Административное право. — М.: Норма, 2012. — С. 215–220.
6. Козлов Ю.М., Попов Л.Л. Административное право. — М.: Юрайт, 2019. — С. 280–285.
7. <https://lex.uz/ru/docs/55561>
8. <https://lex.uz/docs/97664>
9. <https://lex.uz/docs/97664>
10. <https://lex.uz/docs/97664>
11. <https://qalampir.uz/uz/news/prezident-toshkentdagi-ekologik-vaziyat-buyicha-farmon-chik-ardi-127664>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).